

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 391
2023 yil "21" 01



«TEXNIK TIZIMLARNI BOSHQARISH»

fanidan

ISHCHI DASTURI

Bilim sohasi:	300000 – Ishlab chiqarish - texnik soha
Ta'lim sohasi:	310000 – Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi	5310600 – “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi” (avtomobil transporti)

Qarshi - 2023

Fanning ishchi o'quv dasturi, fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashuvchi Kengashining 2019 yil 5 iyuldagi 3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

"Transport vositalari muhandisligi" kafedrasida
dotsentii O'N. Abduraxmonov

Fanning ishchi o'quv dasturi «Transport vositalari muhandisligi» kafedrasida yig'ilishida (bayon № 10 «19.01.2023 y.», Muhandislik texnikasi fakulteti uslubiy komissiyasida (bayon № 5 «10» 01.2023 y.) va institut uslubiy kengashida (bayon № « » « » 2023 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

A.R. Mallayev

Fakultet Uslubiy Komissiyasi raisi

E.M. Murtazayev

Kafedra mudiri

O'N. Abduraxmonov

1. Kiritish

Avtotransport korxonalarining rivojlanishi, hozirgi zamon texnikasi va iqtisodiyoti taraqqiyoti mutaxassislar faoliyati doirasida kengaytiradi, qabul qilinadigan qarorlarni asoslashga va ularning iqtisodiy, ijtimoiy va texnik oqibatlarini baholashga bo'lgan talablarni oshiradi. "Yer usti transport tizimlari va ularni ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti)", «Kasb ta'limi (5310600 – Yer usti transport tizimlari va ularni ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti))» yo'nalishlaridagi bakalavrlar keng qamrovli bo'lib, avtomobil transporti sohasida yetakchi mutaxassisliklardan biridir.

Fanni o'qitish avtomobil transporti texnik ekspluatatsiyasini belgilovchi standart va me'yorga asoslangan. Uni o'qitishda ilmiy-tekshirish ishlarida, ishlab chiqarishda o'tirilgan ko'p yillik tajribadan foydalanib, bozor iqtisodiyoti sharoitida avtomobil transportining rivojlanishi va undan texnik foydalanish masalalari hamda mamlakatimiz va chet ellar tajribalari, avtomobil transportiga texnik xizmat ko'rsatish, joriy ta'mirlash, servis xizmati va avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining rivojlanish istiqboli masalalari talabalarga o'rgatiladi.

Zamonaviy avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlarini tashkil etishda, xizmat ko'rsatishning ilg'or usul va vositalarini tanlashga alohida e'tibor beriladi.

2. Fanining maqsadi va vazifalari

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad talabalarga avtomobil transport vositalarining texnik ekspluatatsiyasi va ularga servis usulida xizmat ko'rsatishni boshqarish va tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikma olish, transport vositalarining samaradorligini oshirish, mehnat-material va energetik resurslarni ekspluatatsiya jarayonida tejashni o'rgatishdir.

Fanning vazifasi – texnik tizimlarning boshqarishning yangi, zamonaviy uslub va texnologiyalari, axborot ta'minoti, texnik vositalari bilan talabalarni tanishtirish, ishlab chiqarishni jadallashirish va boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda tarmoqning belgilangan me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish, texnik tizimlarni boshqarish tushunchasini ijtimoiy hayot va insonparvarlik nuqtai nazaridan o'rganish.

3. Fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar

"Texnik tizimlarni boshqarish" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- texnik tizimlarni boshqarish usullari va texnologiyasi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar;
- boshqarishning texnik vositalari;
- texnik tizimlarni boshqarishda qo'llaniladigan informatsion texnologiyalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- texnik xizmat tarkiblarini;
- qaror qabul qilish usullari va tasnifi;
- transport tizimida boshqarish ma'lumotlarini tahlil etish va qaror qabul qilish;
- boshqarishda qo'llaniladigan hujjatlar va ularni eyritish;
- texnik xizmatni sertifikatlash;
- axborot turlari, manbalari, ularni to'plash va taxlil qilish;
- transportda texnik tizimni tashkil etish va boshqarish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Zamonaviy avtotransport korxonalarining tarkibi, vazifalari, resurslari, xodimlari, texnik ekspluatatsiya qilishda qo'llaniladigan ishlab chiqarish-texnologik va tashkiliy-texnik tizimlari, transport vositalarini ishlatish va ta'mirlashda namunaviy jarayonlar va texnik obektlar, texnik tizimlarning boshqarishning asosiy bosqichlari, tamoyillari, baholash usullari va amaliyotga tatbiq etish, qabul qilishga bog'langan holda texnik tizimlar transformatsiyasi va boshqarish vazifalari, transport majmualari, murakkab texnik obektlarni boshqarish, transport korxonalarining texnik xizmati tarkibini namunaviy variantlari;

texnik tizimlar va ularning maqsadi, tarkibi, boshqarish usullari, tizimni boshqarish qoidalari, boshqaruvchi va boshqariluvchan elementlar, ular orasidagi bog'lanishlar;

transport vositalariga servisi xizmat ko'rsatish ishlab chiqarish jarayonini boshqarish holati va tashkiliy rivojlanish istiqbollari, transport majmuasi tarkibiy bo'limlarida boshqarishning texnik vositalari;

axborot turlari, manbalari, to'plash usullari va ularaga qo'yiladigan talablar, avtotransport korxonalarida qo'llaniladigan hujjatlar, ularning turlari, tarkiblari, aylannasi va ularga qo'yiladigan talablar.

Texnik tizimlarni boshqarish jarayonini muvobillashtirish, avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni boshqarishda taqalash, Delfi va o'xshatishni modelash usullarini qo'llash, ishbiarmonlik o'yinlarida kompyuterdan foydalanish va boshqalar yordamida qaror qabul qilish;

servis korxonalarida texnik xizmatni tashkil etish, xizmatlarini sertifikatlash;

transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, ishlab chiqarish jarayonini markazlashgan holda boshqarishda texnik tizimni samaradorligini texnik – iqtisodiy baholash.

4. Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Texnik tizimlarni boshqarish fanini o'rganish uchun "Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi", "Ishonchilik nazariyasi va diagnostika asoslari", "Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi", "Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari", "Avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash" fanlarini o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Texnik tizimlarni boshqarish fani 8-semestrdan o'qitiladi

5. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Darslar elektron hisoblash mashinalari va o'qitishning texnik vositalari bilan jibozlangan maxsus auditoriya xonalari, "Mercedes Bens" va "Samavito" servis xizmat ko'rsatish markazlari, ilg'or avtotransport korxonalarida o'tkaziladi. O'qitishda fan bo'yicha yaratilgan elektron darsliklardan shuningdek talabalarni mustaqil ishlaganda bilimni puxta bo'lishi, izlanish va ijod etish xissiyotini shakllantirish uchun tafakkur yuritishning aqliy xujum, klaster va boshqa usullardan keng foydalaniladi.

6. Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Talabalar fan bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalardan avtotransport va avtoservis korxonalarida avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish hamda uni amalga oshirishda keng foydalaniladilar. "Yer usti transport tizimlari va ularni ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti)", «Kasb ta'limi (5310600 – Yer usti transport tizimlari va ularni ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti))» yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarni bu fanni o'zlashtirmasdan turib soxa tarmoqlari bo'yicha ishlarini tasavvur qilib bo'lmaydi.

7. Asosiy qism

«Texnik tizimlarni boshqarish»

fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

Umumiy o'quv soati	120 soat
Shu jumladan:	
Jami auditoriya soatlari	60 soat
Ma'ruza	30 soat
Laboratoriya mashg'ulotlari	30 soat
Mustaqil ta'lim	60 soat

№	Mavzu, bo'lim nomi	Ma'ruza	Laboratoriya mashg'ulot	Mustaqil Ish
1.	1-Modul. Texnik tizimlarni ishlab chiqarishda boshqarish 1-mavzu. Texnik tizimlarni boshqarish fanining predmeti, vazifasi va manbalari Respublikada texnik tizimlarni boshqarish taraqqiyoti bilan bog'liq hukumat qarorlarini o'rganish. Texnik tizimlarni boshqarish fanining asosiy vazifalari va maqsadi. Avtomobil transporti korxonalarini boshqarishni hozirgi davrdagi holati va taraqqiyoti.	2		6
2.	2-mavzu. Texnik tizimlar va ularni boshqarish usullari haqida tushuncha Katta tizimlarni asosiy xossalari va tasnifi. Tizim tarkibining aloqalari. Boshqarish qoidalari, bosqichlari, usullarini tasnifi. Tizimni boshqaruvchi va boshqarilayotgan elementlari hamda ularning orasidagi bog'lanishlar. Boshqarishning qattiq va egiluvchan tizimlari. Tizimni reaktivligi. Taklif va talab balansida korxonani boshqarishni muvofiqlashtirib turish. Texnik maqsadi.			
3.	3-mavzu. Texnik tizimlarning ishlab chiqarish tarkiblari va ularga ta'sir etuvchi omillar Texnik tizimlarni ishlab chiqarish tarkiblari, vazifalari. Tarkiblariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. Avtotransport korxonalarini boshqarish va ishlab chiqarish tarkiblarining namunaviy variantlari.	2	2	6
4.	4-mavzu. Texnik xizmatni boshqarishni tashkil qilish shakli va usullari Texnik xizmatni tashkiliy-ishlab chiqarish tarkibi. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va ta'mirlash (T) ni tashkil etish shakli va usullari. Avtomobillarga TXK va T ni boshqarish va tashkil qilishni markazlashtirilgan tizimi. Avtomobillarni TXK ga yuborishni rejalashtirish.	4	4	6
5.	5-mavzu. Zamonaviy avtotransport korxonalarini texnik xizmatining tarkiblari, vazifalari va xodimlari Zamonaviy avtotransport korxonalarini uyushmalari, hissdorlik jamiyatlari, servis markazlari, maxsustrans korxonalarini texnik xizmatining tarkibi, vazifalari, resurslari va xodimlari. Texnik xizmat xodimlari tarkibini umumiy tasnifi, ko'nikmalari. Mutaxassislar bo'lgan asosiy talablar va ular bilan korxonalarini ta'minlanganligi. Texnik xizmat xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish. Xodimlarni mansab pog'onalariga ko'tarish sxemasi.	2	4	6

6.	II-Modul. Ishlab chiqarishda qaror qabul qilish va jarayonlarni modellashtirish 6-mavzu. Ishlab chiqarishni boshqarishda qaror qabul qilish usullari va tasnifi Qaror qabul qilish jarayoni. Qaror qabul qilish usullari va tasnifi. Aniqlik sharoitlarida qaror qabul qilish. Axborot etarli bo'lmagan sharoitlarda qaror qabul qilish. Qaror qabul qilishda mutaxassislar fikrini integratsiyasi. Ekspert baholash orqali mutaxassislar fikrini olish va qaror qabul qilish. Aprior tabaqlash, konkordatsiya koefitsienti. Aprior tabaqlashni afzalliklari va kamchiliklari.	4	2	4
7.	7-mavzu. Texnik tizimlarni axborot bilan ta'minlash va ularni boshqarishda qo'llaniladigan hujjatlar va hujjatlarini yuritish Axborot turlari, to'plash usullari. Axborot to'plash manbalari. Axborotlarga qo'yiladigan talablar. Axborot tashuvchilari. ATKlarida texnik xizmatida qo'llaniladigan hujjatlar, ularni turlari va rasmiylashtirish tartibi. Hujjatlar tarkibi va ularga bo'lgan talablar. Hujjatlar aylanmasi, hajmi.	2	4	4
8.	8-mavzu. Qarorni ishlab chiqishda va holatlarni baholashda turli usullarni va o'xshatishli (imitatsiya) modellashtirish hamda ishblarmonlar o'yinlarini qo'llash Delfi usuli - integratsion muolaja. Delfi usulini afzalliklari va kamchiliklari, so'rov va intervyu yordamida holatlarni baholash. O'xshatish - tushunchasi. O'xshatishli modellashtirishni qo'llashni shart- sharoitlari. Boshqaruvda model tushunchasi. Boshqarish va texnologik masalalarni hal etishda o'xshatishli modellashtirishni qo'llash. Ishblarmonlar o'yini.	4	2	6
9.	9-mavzu. Servis korxonalarida xizmatni tashkil etish, sertifikatlash. Servis korxonalarining turlari, farqlanish jihatlari. Servis korxonalarida xizmatni tashkil etish. Buyurtmalarni qabul qilish, avtosalonlarni xizmat ko'rsatish uchun tayyorlash, buyurtmalarni operatsiya turlariga qarab joylashtirish jihatlari. Mahsulot va xizmatni sertifikatlash. Sertifikatlash sxemasi va muddatlari, majburiy sertifikatlanadigan xizmatlar va buyum - nomlari. Xizmatlarni sertifikatlash tartibi, xizmat va buyurtmalarni sertifikatlashda sinov laboratoriyalarining o'zini. Chet el tashkilotlari tomonidan berilgan moslik sertifikatlarining tan olinishi.	2	4	4
10.	10-mavzu. Texnik tizimlar bakalavri, muhandisi va magistrining ishblarmonlik xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar Texnik tizimda muhandis, bakalavr bilimlarining o'suvchanligi. Texnik tizimning ishlab chiqarish samaradorligiga insonparvarlik omilining ta'siri. Magistr, bakalavr, muhandis tushunchasi, ularga ishlab chiqarishda qo'yiladigan talablar.	4	4	6

11.	11-mavzu. Texnik tizimlarni boshqarishda insonparvarlik omillarining tutgan o'rni va texnik vositalar Boshqarish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik tomonlari. Mehnat faolligi, mehnat qiluvchining shu mehnat natijasidan manfaatdorligi. Boshqarishni texnik vositalari kompleksiga qo'yiladigan talablar. Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish bo'limi xodimlari bilan texnik vositalar kompleksi orasidagi o'zaro bog'lanishni tashkil etish. Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologik jarayonini boshqarish vositalari. Aloqa va nazorat texnik vositalari.	2	2	6
Jami		30	30	60

ASOSIY QISM
Ma'ruza mashg'ulotlari (8-semestr)

Ma'ruza-1. Texnik tizimlarni boshqarish fanining predmeti, vazifasi va manbalari

Respublikada texnik tizimlarni boshqarish taraqqiyoti bilan bog'liq hukumat qarorlarini o'rganish. Texnik tizimlarni boshqarish fanining asosiy vazifalari va maqsadi. Avtomobil transporti korxonalarini boshqarishni hozirgi davrdagi holati va taraqqiyoti.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, klaster, munozara, o'z-o'zini nazorat qilish. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-2. Texnik tizimlar va ularni boshqarish usullari haqida tushuncha

Katta tizimlarni asosiy xossalari va tasnifi. Tizim tarkibining aloqalari. Boshqarish qoidalari, bosqichlari, usullarini tasnifi. Tizimni boshqaruvchi va boshqarilayotgan elementlari hamda ularning orasidagi bog'lanishlar. Boshqarishning qattiq va egiluvchan tizimlari. Tizimni reaktivligi. Taklif va talab balansida korxonani boshqarishni muvofiqlashtirib turish. Texnik maqsadi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-3. Texnik tizimlarning ishlab chiqarish tarkiblari va ularga ta'sir etuvchi omillar

Texnik tizimlarni ishlab chiqarish tarkiblari, vazifalari. Tarkiblariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. Avtotransport korxonalarini boshqarish va ishlab chiqarish tarkiblarining namunaviy variantlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Klaster, dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-4. Texnik xizmatni boshqarishni tashkil qilish shakli va usullari

Texnik xizmatni tashkiliy-ishlab chiqarish tarkibi. Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va ta'mirlash (T) ni tashkil etish shakli va usullari. Avtomobilarga TXK va T ni boshqarish va tashkil qilishni markazlashtirilgan tizimi. Avtomobilarni TXK ga yuborishni rejalashtirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-5. Zamonaviy avtotransport korxonalarini texnik xizmatining

tarkiblari, vazifalari va xodimlari

Zamonaviy avtotransport korxonalarini uyushmalari, hissdorlik jamiyatlari, servis markazlari, maxsus trans korxonalarini texnik xizmatining tarkibi, vazifalari, resurslari va xodimlari. Texnik xizmat xodimlari tarkibini umumiy tasnifi, ko'nmiligi. Mutaxassislarga bo'lgan asosiy talablar va ular bilan korxonalarini ta'minlanganligi. Texnik xizmat xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish. Xodimlarni mansab pog'onalariga ko'tarish sxemasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-6. Ishlab chiqarishni boshqarishda qaror qabul qilish usullari va tasnifi

Qapop qabul qilish jarayoni. Qapop qabul qilish usullari va tasnifi. Aniqlik sharoitlarida qaror qabul qilish. Axborot etarli bo'lmagan sharoitlarda qaror qabul qilish.

Qaror qabul qilishda mutaxassislar fikrini integratsiyasi. Ekspert baholash orqali mutaxassislar fikrini olish va qaror qabul qilish.

Aprior tabaqalash, konkordatsiya koeffitsienti. Aprior tabaqalashni afzalliklari va kamchiliklari. **Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-7. Texnik tizimlarni axborot bilan ta'minlash va ularni boshqarishda qaror qabul qilish usullari va ularni boshqarishda

Axborot turlari, to'plash usullari. Axborot to'plash manbalari. Axborotlarga qo'yiladigan talablar. Axborot tashuvchilari.

ATKlarida texnik xizmatda qo'llaniladigan hujjatlar, ularni turlari va rasmiylashtirish tartibi. Hujjatlar tarkibi va ularga bo'lgan talablar. Hujjatlar aylannasi, hajmi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-8. Qarorni ishlab chiqishda va holatlarni baholashda turli usullarni va o'xshatishli (imitatsiya) modellashirish hamda ishblarmonlar o'yinlarini qo'llash

Delfi usuli - integratsion muolaja. O'xshatish - tushunchasi. Boshqaruvda model tushunchasi. Boshqarish va texnologik masalalarni hal etishda o'xshatishli modellashirishni qo'llash.

Ishblarmonlar o'yini.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-9. Servis korxonalarida xizmatni tashkil etish, sertifikatlash.

Servis korxonalarining turlari, farqlanish jihatlari. Servis korxonalarida xizmatni tashkil etish. Mahsulot va xizmatni sertifikatlash. Sertifikatlash sxemasi va muddatlari, majburiy sertifikatlanadigan xizmatlar va buyum nomlari. Xizmatlarni sertifikatlash tartibi, xizmat va buyumlarni sertifikatlashda sinov laboratoriyalarining o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-10. Texnik tizimlar bakalavri, muhandisi va magistrining ishblarmonlik xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar

Texnik tizimda muhandis, bakalavr bilimlarining o'suvchanligi. Texnik tizimning ishlab chiqarish samaradorligiga insonparvarlik omilining ta'siri. Magistr, bakalavr, muhandis tushunchasi, ularga ishlab chiqarishda qo'yiladigan talablar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

Ma'ruza-11. Texnik tizimlarni boshqarishda insonparvarlik omillarining tutgan o'rni va texnik vositalar

Boshqarish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik tomonlari. Mehnat faolligi, mehnat quluvchining shu mehnat natijasidan manfaatdorligi.

Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish bo'limi xodimlari bilan texnik vositalar kompleks orasidagi o'zaro bog'lanishni tashkil etish. Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologik jarayonini boshqarish vositalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A1, A2, A6, A7

"Texnik tizimlarni boshqarish" fanidan 8-semestrda ma'ruza mashg'ulotining kalendar rejasini

T/r	Mavzular nomi	Soat
1.	Texnik tizimlarni boshqarish fanining predmeti, vazifasi va manbalari	2 soat

2.	Texnik tizimlar va ularni boshqarish usullari haqida tushuncha	2 soat
3.	Texnik tizimlarning ishlab chiqarish tarkiblarini va ularga ta'sir etuvchi omillar	2 soat
4.	Texnik xizmatni boshqarishni tashkil qilish shakli va usullari	4 soat
5.	Zamonaviy avtotransport korxonalari texnik xizmatining tarkiblarini, vazifalarini va xodimlari	2 soat
6.	Ishlab chiqarishni boshqarishda qaror qabul qilish usullari va tasnifi	4 soat
7.	Texnik tizimlarni axborot bilan ta'minlash va ularni boshqarishda qo'llaniladigan hujjatlar va hujjatlarini yuritish	2 soat
8.	Qarorni ishlab chiqishda va holatlarni baholashda turli usullarni va o'xshatishli (imitatsiya) modellashirish hamda ishblarmonlar o'yinlarini qo'llash	4 soat
9.	Servis korxonalarida xizmatni tashkil etish, sertifikatlash	2 soat
10.	Texnik tizimlar bakalavri, muhandisi va magistrining ishblarmonlik xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar	4 soat
11.	Texnik tizimlarni boshqarishda insonparvarlik omillarining tutgan o'rni va texnik vositalar	2 soat
Jami:		30 soat

Laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari

1. Bosh mexanik bo'limining ishini o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Klaster, muammoli ta'lim. Bahs-munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A [1], A [6]

2. Avtotransport korxonasi texnik va nazorat bulimlari ishini o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Bahs-munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A [1], A [6]

3. Ishlab chiqarishni boshqarishda axborot texnologiyalarini qo'llash tizimini o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A [1], A [6]

4. Soha bo'yicha ishblarmonlar o'yinini tashkil etish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim, bahs-munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A [1], A [6]

5. Avtotransport korxonasi ishlatiladigan texnik-texnologik hujjatlar va hujjatlarini yuritish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Klaster, munozara, BBB, Insert. **Adabiyotlar:** A [1], A [6]

6. Texnik bo'limining ishini o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Klaster, muammoli ta'lim. Bahs-munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A [1], A [6]

7. Avtotransport korxonasi TX va JT jarayonlarini tashkil etish usullarni o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Klaster, munozara, BBB, Insert.

8. Servis markazlarida texnik tizimni boshqarishni o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Klaster, munozara, BBB, Insert.

9. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasida boshqarish tizimini o'rganish. **Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A [1], A [6]

10. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasidan litsenziya olish tartibini o'rganish. **Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A [1], A [6]

11. Avtotransport korxonasi boshqarish tizimi tarkiblarini o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Klaster, munozara, BBB, Insert. Adabiyotlar: A [1], A [6]

12. Avtotransport korxonasi hodimlarini tayyorlash tizimini va ularni baholash turlari o'rganish Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [1], A [6]

Laboratoriya mashg'ulotlarning kalendar rejası

№	Mavzuning nomi	soat
1.	Bosh mexanik bo'limining ishini o'rganish.	2
2.	Avtotransport korxonasi texnik va nazorat bulimlari ishini o'rganish.	2
3.	Ishlab chiqarishni boshqarishda axborot texnologiyalarini qo'llash tizimini o'rganish.	2
4.	Soha bo'yicha ishblarmonlar o'yinini tashkil etish.	2
5.	Avtotransport korxonasi ishlatiladigan texnik-texnologik hujjatlar va hujjatlarini yuritishni o'rganish.	4
6.	Texnik bo'limning ishini o'rganish.	2
7.	Avtotransport korxonasi TX va JT jarayonlarini tashkil etish usullarini o'rganish.	4
8.	Servis markazlarida texnik tizimni boshqarishni o'rganish.	2
9.	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasida boshqarish tizimini o'rganish.	2
10.	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasidan litsenziya olish tartibini o'rganish.	2
11.	Avtotransport korxonasi boshqarish tizimi tarkiblarini o'rganish.	2
12.	Avtotransport korxonasi hodimlarini tayyorlash tizimini va ularni baholash turlari o'rganish	4
Jami:		30

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning maqsadi - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar. Quyida 7-semestr uchun mustaqil ish mavzulari berilgan

№	Mavzuning nomi	soat
1	Avtotransport korxonalarining zamonaviy tarkiblari, vazifalari, printsiplari, printsiplari tasvirlari	2
2	Texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalarining zamonaviy tarkiblari, vazifalari, printsiplari tasvirlari	2
3	Texnik xizmat ko'rsatish (TXK-1, TXK-2) mintaqalarini tashkiliy tarkibi, ishlarini tashkil etish, qo'llaniladigan jihozlar	2
4	Joriy ta'mirlash mintaqalarini tashkiliy tarkibi, ishlarini tashkil etish, qo'llaniladigan jihozlar	2
5	Ishlab chiqarish ustaxonalari tarkibi, vazifalari qo'llaniladigan jihozlari	2
6	Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish usullari	2
7	ATK da boshqarish tizimi tarkiblari	2
8	ATK bo'limlari tarkibi va vazifalari	2
9	ATK texnik xizmatning markazlashgan boshqaruv tizimi	2
10	ATK muhandis-texnik xizmatining tarkibi, vazifalari va tashkiliy tuzilishi	2
11	Ishlab chiqarish taxtil qilishda ishblarmon o'yinlarida foydalanish	2
12	Qaror qabul qilishning tabaqalash usuli	2
13	Axborot turlari, manbalari, to'plash usullari	2
14	Qaror qabul qilish Delfi usuli	2
15	ATK da ishlatiladigan hujjatlar	2
16	Zamonaviy ATK larni boshqarish tarkiblari	2
17	ATK hodimlari, tarkibi, vazifalari	2
18	Xodimlarni tayyorlash, baholash turlari	2

19	Bakalavrlarning ishblarmonlik xususiyatlari	2
20	ATK tarkibining turli shakllarini namunalari	2
21	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasida boshqarish tizimini	2
22	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasidan litsenziya olish tartibi	2
23	Avtotransport korxonasi boshqarish tizimi tarkiblari	2
24	Avtotransport korxonasi hodimlarini tayyorlash tizimini va ularni baholash turlari	2
25	O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti va avtomobil sanoatini rivojlantirish bo'yicha miyoriy hujjatlar	2
26	Avtomobil transporti tashkiloti xodimlari kasbiy mahoratining avtomobillar ekspluatatsiyasi va ta'mirlash texnik jarayoni samaradorligiga ta'siri	2
27	Avtotransport vositalari sifatining ularni ekspluatatsiya qilish samaradorligiga ta'siri	2
28	Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi texnologik jarayonlarini boshqarishning dasturiy maqsadli usuli	2
29	Avtomobil transporti servisi texnik ekspluatatsiyasi texnologik jarayonlarini boshqarish usullari	2
30	Avtotransport tashkilotida avtomobillar TS va ta'mirlash texnologik jarayonlarini boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari	2
Jami:		60

Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Res'ublikasining qonunlari, 'rezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Res'ublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, fan bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari, taqdimot slaydlari, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda internet materiallaridan foydalaniladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish

Talabalar bilimni nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida" gi N i z o m (Nizom O'z.R. OO'MTV'ning 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Res'ublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTV'ning 2010 yil 25 avgustidagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Res'ublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Joriy nazorat - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim to'shirlari buyicha, og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat - semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallanganidan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi

Yakuniy nazorat - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralar asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Fan bo'yicha talabalar o'zlashtirishini baholash tizimi

Baholash tartibi va mezonlari

Talabalarining har bir semestrdagi fanlarni o'zlashtirishi har bir baholash turlari bo'yicha: 5 (a'lo), 4 (yaxshi), 3 (qoniqarli) va 2 (qoniqarsiz) ko'rinishida baholanadi. 5, 4 va 3 baholar ijobiy hisoblanadi. Baholashda raqam va matn bir xil talqin etiladi.

Malakaviy amaliyot, kurs ishi (loyihasi), fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistraturada ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha talabalar o'zlashtirishi ham yuqoridagi baholash turlari bo'yicha baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a'lo) baho:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yuritish olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

4 (yaxshi) baho:

- mustaqil mushohada yuritish olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

2 (qoniqarsiz) baho:

- fan dasturni o'zlashtirmaganlik;
- fanning mohiyatini bilmasslik;
- aniq tasavvurga ega bo'lmasslik;
- mustaqil fikrlay olmaslik.

Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlari va OB 5 baho (bat)lik tizimda ushbu fandan o'tkaziladigan YaBga qadar bo'lgan muddatda topshirilishi shart. Ushbu muddatda ularni ijobiy bahoga topshirmagan talaba bu fandan o'tkaziladigan YaBga kiritilmaydi va akademik qarzidor hisoblanadi.

Uzli sabablarga (talabning kasal bo'lishi, yaqin qarindoshlari oilasida favqulodda holatlar, yashash joyi bilan bog'liq muammoli vaziyatlar, respublika va xalqaro miqyosdagi tadbirlarda ishtirok etish) ko'ra baholashlarda ishtirok etmagan talabaga, o'qishini boshlab asoslovchi hujjatlarni taqdim etgan taqdirda, fakultet dekani farmoyishi bilan baholashlarni muddatlari ko'rsatilgan (o'quv yili semestri davomida) shaxsiy grafik asosida topshirishga ruxsat beriladi.

Kuzgi semestr natijalari bo'yicha akademik qarzidorigi 3 tagacha bo'lgan talabalarga bir oy gacha, bahorgi semestr natijalari bo'yicha akademik qarzidorigi 3 tagacha bo'lgan talabalarga, bitiruvchi kursdan boshqa kurs talabalariga yangi o'quv yili boshidan qayta topshirishga qo'shimcha bir oy muddat beriladi. Akademik qarzidorigi 4 ta va undan yuqori bo'lgan talabalarga qayta topshirishga ruxsat berilmaydi va rektorning buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Berilgan muddatda akademik qarzidorki qayta topshirishlar soni 2 marta oshmasligi kerak. Ikkinchi qayta topshirish fakultet dekani tasdiqlagan komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Qo'shimcha muddatlarda ham akademik qarzidorki bartaraf etmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha baholash turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday

holda fakultet dekani taqdimnomasiga muvofiq rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, 2 kungacha bo'lgan muddatda o'z xulosasini bildiradi. Fan o'qituvchisining qo'ygan bahoni asoslovchi qisqa ma'lumotini oladi.

Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasida baholash jarayoni mazkur Nizom asosida o'tkazilganligi yoki Nizom talablari buzilganligi yoxud baholash to'g'riligi (noto'g'riligi) to'g'risida xulosa beradi.

Apellyatsiya komissiyasi xulosasiga ko'ra Nizom talablari buzilgan yoki baholash noto'g'ri bo'lgan deb topilgan taqdirda, mazkur komissiya qarori bilan baholash qayta o'tkaziladi.

Kursda qoldirilgan talaba fan(lar)ni o'zlashtirmagan semestr boshidan to'lov-kontrakt asosida o'qishini davom ettiradi va mazkur semestr bo'yicha o'quv rejada belgilangan ammo o'zlashtirilmagan barcha fanlarni qayta o'zlashtirishi hamda baholanishi talab etiladi.

Talaba OB dan 3, 4 yoki 5 baho olgan taqdirda, ya'ni ijobiy baholanganda uni qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar talaba yozma nazorat ishlarini OB yoki YAB topshirmagan bo'lsa, u holda qaydnoma (Elektron tizim)ning ushbu talabaga mos keluvchi qatordagi tegishli katakda "0"(nol) deb yoziladi.

12. Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Usmonov S.S. Texnik tizimlarni boshqarish. darslik-T.: "Fan va texnologiya", 2019 y. -328 b. 2. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlari talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Prof Sidiqazarov Q.M. umumiy taxriri ostida Toshkent. "Voriz-Nashriyoti", 2008 y. -560 b.
3. Musajonov M.Z. Transport tarmog'i korxonalarini loyihalash. Toshkent. "VORIS-NASHRIYOT" 2006 y.-259 b.
4. Avtotransport vositalari servisi; Servis korxonalarini texnologik jihozlash M.A. Ikramov va boshqalar. Toshkent: TAYI, "Riziev X.XK" 2014 y.-160 b.5
5. Andriev A. Rezin Avtomotive service management.Prinsipis into practice (third edition). Hudson. Street, new York, USA 2019 -336 pages.
6. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha 4-nashridan (prof Kuznetsov Ye.Q. tahriri ostida. M.: Nauka-2004.-535b.) tarjima prof. Sidiqazarov Q.M. umumiy taxriri ostida Toshkent. "VORIS-NASHRIYOT" 2006 y.-670 b.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Kuznetsov E.S. U'ravlenie texnicheskoy eks'lyutatsie avtomobily. M.: Trans'ort, 1990 g.
2. Kuznetsov E.S. U'ravlenie texnicheskimi sistemami. - M.: MADI 2001 g.
3. "O'zbekiston Res'ublikasi avtomobil trans'orti harakati tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash to'g'risidagi Nizom" Toshkent, 1999 y. -212 b.
4. Valijonov R., Qabulov O. Menejment asoslari. Toshkent, 1997 y.
5. Maxmudov N. Va boshqalar. O'zbek tilida ish yuritish. Toshkent, 1990 y.
6. Goulomov S.S. Menejment asoslari. Toshkent, 1998 y.
7. Borovskiy Yu.I. va boshqalar. Avtomobillarning tuzulishi, TXK va Ta'mirlash. -Toshkent, Mexnat 2001 y. -573 b.
8. Texnicheskaya eks'lyutatsiya avtomobiley. Uchebnik dlya VUZov. 'od red E.S.Kuznetseva -M.: Nauka 2004 g
9. Avtomobillar servisi axborotnomasi. Sidiqazarov Q.M., Taxriri ostida Toshkent. "Voriz-Nashriyoti", 2011 y. -496 b.

Internet va Ziyonet saytlari.

1. <http://www.uzsci.net>
2. <http://www.ziyo.net.uz>
3. <http://www/qmii.uz>
4. <http://www.ru.Welikoedia.org/wiki>

